

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MALAKALI O'QITUVCHILAR
TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.**

Miramatova Laylo Ravshanjon qizi

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2- bosqich magistranti.

Tel: +99893 151 61 75

E-mail: miramatovalaylo@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi raqamlashgan ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Innovatsion pedagogika, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli savodxonlikni oshirish, onlayn ta'lim platformalari kabi zamonaviy metodlar o'qituvchilar tayyorlash jarayonidagi muhim omil sifatida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirilgan ta'lim, sun'iy intellekt innovatsion pedagogika, zamonaviy metodlar, onlayn platformalar, raqamli savodxonlik, interaktiv darslar.*

Аннотация. *В данном тезисе анализируются современные подходы в процессе подготовки учителей в условиях цифровой системы образования. Такие современные методы, как инновационная педагогика, смешанное (blended) обучение, эффективное использование технологий искусственного интеллекта, повышение цифровой грамотности и применение онлайн-образовательных платформ, рассматриваются как важные факторы в процессе подготовки педагогических кадров.*

Ключевые слова: *цифровое образование, искусственный интеллект, инновационная педагогика, современные методы, онлайн-платформы, цифровая грамотность, интерактивные уроки.*

Annotation. *This thesis analyzes modern approaches in the process of teacher training within the digital education system. Contemporary methods such as innovative pedagogy, blended learning, effective use of artificial intelligence technologies, enhancement of digital literacy, and the application of online learning platforms are highlighted as important factors in the process of preparing qualified teachers.*

Keywords: *digital education, artificial intelligence, innovative pedagogy, modern methods, online platforms, digital literacy, interactive lessons.*

Bugungi zamonaviy dunyoda ta'lim tizimini raqamlashtirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi pedagog kasbiga bir qator talablar qo'yimoqda. Xususan, endilikda ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvchi har bir o'qituvchi nafaqat o'z fanining mutaxassisi, balki raqamli vositalarda samarali foydalana bilishi, o'quv mashg'ulotlarini interaktiv metodlar asosida

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

tashkil etuvchi va o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantiruvchi shaxs sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda raqamli ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasida raqamli texnologiyalar asosida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish[1] alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuning uchun malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish- bu jarayondagi sifat va samaradorlik uchun xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogika bu - o'quv jarayoniga turli innovatsion pedagogik texnologiyalarni olib kirish, zamonaviy metodlarni qo'llash demakdir. Pedagogik innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Yangi o'qitish metodlari (muammoli o'qitish, interaktiv texnologiyalar).
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlashtirilgan ta'lim).
3. Modulli o'qitish tizimlari (o'quv materiallarini qismlarga bo'lib o'zlashtirish)[2].

Innovatsion pedagogikaning bir qismi bo'lgan interaktiv texnologiyalar hamda onlayn platformalar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlaydi. Interaktiv darslarda talabalar nafaqat tinglovchi, balki mashg'ulotning faol ishtirokchisiga aylandi. Zamonaviy didaktik vositalar o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan: aqliy hujum, klasterlar, "Veyer" texnologiyalari. Onlayn platformalar masalan: Kahoot!, Quizizz, Educaplay, Duolingo, Khan Academy kabilar bepul ta'lim, interaktiv baholash vositalari hamda til o'rganish imkoniyatlarini taklif etmoqda. Bundan tashqari Coursera", "Moodle", "Google Classroom" kabi platformalar orqali o'qituvchilar o'z malakasini oshirish, tajriba almashish va xalqaro miqyosdagi o'quv dasturlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Elektron darsliklar va raqamli o'quv resurslari- an'anaviy darliklarning muqobil variantlari hisoblanib ular talabalarning bilish faoliyati motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar uchun virtual laboratoriyalar ham muhim ahamiyatga ega. Ular real tajribalarni raqamli muhitda takrorlash imkonini beradi.

Yana bir e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan jihat bu raqamli savodxonlikni oshirish. Raqamli savodxonlikni oshirish, axborot xavfsizligi va etik mas'uliyatni shakllantirish — zamonaviy pedagog tayyorlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

2017 yilgi G20 sammiti tadbirlari doirasida ishlab chiqilgan yondashuvga asosan raqamli savodxonlikning beshta asosiy komponenti taklif etilgan:

- raqamli kontent bilan ishlash, ya'ni ma'lumot yaratish, topish, u bilan ishlash, birlashtirish, tahlil qilish qobiliyati;
- kompyuter texnikasi bilan ishlash – texnik amallarni bajarish usullarini tushunish, kompyuter va dasturiy ta'minotning tuzilishini tushunish;
- ommaviy axborot vositalari (matnlar, tovushlar, rasmlar, videolar va boshqalar) bilan ishlash – ommaviy axborot vositalarini baholash, media kontentini

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

yaratish qobiliyati;

➤ kommunikatsiya – raqamli sohada, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish qobiliyati;

➤ texnologik innovatsiyalar – hayotda turli texnologiyalardan foydalanish, raqamli makonda ishlash vositalari (gadjetlar, ilovalar)[3].

Yuqoridagilarda kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli savodxonlik bu - zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim omillardan biridir. U o'qituvchining ijodiy, mustaqil ishlash salohiyatini oshiradi. raqamli savodxonlikni oshirish, axborot xavfsizligi va etik mas'uliyatni shakllantirish zamonaviy pedagog tayyorlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirilgan ta'lim muhitida malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Chunki, sifatli ta'lim bu avvalo sifatli pedagog demakdir. Zamonaviy o'qituvchi raqamli vositalardan samarali foydalanishni bilishi, onlayn va aralash ta'lim shakllarini puxta o'zlashtirishi hamda o'quvchilarni raqamli muhitda o'qitish va tarbiyalash kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi.

2. Abduqaxxorova M.M, Nizomitdinova N.R. "Innovatsion pedagogik yondashuvlar va ularning ta'limdagi o'rni" Central Asian Journals of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025.

3. "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.Tosh-2025.

4. Qulijonov N.J. "Raqamlashtirish sharoitida Pedagog kadrlar tayyorlashda dasturiy-didaktik vositalarning samaradorligi" "Экономика и социум" №6(133)-2 2025.